

XX ASR VOQELIKLARI KONTEKSTIDA SYUJET EVOLYUTSIYASI VA BADIY TAFAKKUR TRANSFORMATSIYASI

Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

E-mail: dilimakhmudova782@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18373704>

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot XX asrda yuz bergan global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fonida roman syujetining evolyutsiyasi hamda badiiy tafakkurning transformatsiyasini tahlil etishga bag'ishlanadi. Xususan, o'zbek va ingliz adabiyoti vakillari Ulug'bek Hamdam hamda Somerset Moemning romanlari misolida syujet qurilishining modifikatsiyasi, uslubiy-shakliy izlanishlar sintezi hamda poetik yangilanish jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy voqeliklarning badiiy ifodaga ta'siri, inson tafakkuridagi inqirozli holatlarning syujet strukturasida aks etish xususiyatlari tahlil qilinadi. Natijada XX asr romanlarida syujet evolyutsiyasining ijtimoiy-siyosiy omillar bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: XX asr voqeliklari, roman janri, syujet evolyutsiyasi, badiiy tafakkur transformatsiyasi, tarixiy ziddiyatlar, poetika, syujet modifikatsiyasi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, uslubiy sintez, adabiy tafakkur

XX asr taraqqiyoti nihoyatda keskin va ziddiyatli xarakter kasb etib, bu holat inson ongida va tafakkurida muqarrar tarzda aks etdi. Iqtisodiy qiyinchiliklar jamiyat a'zolarida norozilik kayfiyatining kuchayishiga olib keldi. Binobarin, roman qahramonlari real hayotdan olingan holda yaratilgani bois, voqelikni qanday shakl va usulda ifodalash, syujet hamda kompozitsiyaning yaxlitligini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Jahon adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, mazkur tamoyillar atrofida olib borilgan ilmiy munozaralarning uzluksiz davom etib kelayotganini ko'rish mumkin. Hozirgacha to'liq yechim topmagan mavjudlik muammosini badiiy aks ettirish san'ati — roman poetikasida uslubiy rang-baranglik va o'ziga xoslikning kuchayishiga sabab bo'ldi. Natijada XX asr adabiy jarayoni dunyodagi keskin ziddiyatlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi.

Benihoya keng badiiy tafakkurga ega yozuvchilargina o'z individual uslubini va inson xarakterining hali hyech kim ilg'ab yetmas miqyoslarini yaratishga qodirligi bilan alohida ajralib turadi. O'zbek adabiyotida kutilmagan situvasiyalar, syujet va badiiy kompozitsiyaning tadrijiy takomili, davrning ham, zamonning ham ilg'or g'oyalaridan bir qadar balandlab ketish, uni o'quvchilarga turli rakurslarda tanishtirish yo'lida zalvorli mashaqqatlar tortadilar. Ana shu mashaqqatlar evaziga o'z uslubini, g'oyaviy-badiiy platformasini yuzaga keltiradilar.

Shaxslararo va millatlar, irqalar aro ziddiyatlar ana shu metamorfozaning hosilasi ekanligini dalolatlaydi:

“Mundog' o'ylab qarasam, men tanamning huzur qilib yashash yo'lidagi istagiga bo'ysunib, o'zimni turfa qiynoqlarga girftor qilib o'tiribman ekan. Bor-yo'g'i-shu: jismning – erta-indin o'lib-chirib, tuproqqa qo'shilib ketguvchi vujudning xarxashalari uchun shuncha zahmatmi?.. Agar zahmatning ortida nimadir – arzigulik qandaydir narsa, voqyea-hodisa seni kutib turganda boshqa gap edi. Axir natija hyech-da yoki deyarli hyech! Bunga qandoq chidash mumkin!?” – Akbar o'girilib yerga yuz tuban yotib oldi, biroq mushohadan to'xtamadi. – har qanday ulug' ish boshlamagin, hammasining oxiri qayg'uli, nihoya, kimni, qanday go'zal qizni,

ayolni sevmagin, barining so'nggi ayrilik, nadomat, umring uzoq bo'lib qancha yashamagin, baribir, o'limni xatlab o'tolmaysan. Insonga tegishli neki bor, hammasi kunpaya-kun bo'lishga, chang zarralaridek to'zg'ib ketishga mahkum bo'lsa... dodingni kimga aytasan?.. Xudoga!.."[1;22].

Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanida hahyotning juda chigal muammolari: muhabbat va nafrat, ayriliq va sadoqat, taqdir va hayot, mehr va shafqat kabi o'nlab mushohadakor mavzular o'z yo'nalishida yozuvchi mushohadalari bilan xarakter badiiy tadrijini yanada reallashtiradi. Yovuzlik qarshisida o'zini Isyonkor ruhi bilan yuksaklarga chorlayotgan odamlar alaloqibatda g'alaba qozonishini yuksak tuyg'ular fonida tasvirlashga imkon topadi. Ayni paytda, yozuvchi Akbar va Diana o'rtasidagi mulohazalarni tasvirlar ekan, uning har tomonlama kurashga tayyor qarashlarini teran idroklashga yo'l topa boradi. Shuningdek, jinoyat jazosiz qolmaydi degan aqida ham jannatdan quvilgan Odam Ato va Momo Havodan ko'chib kelayotgan yer yuzidagi jamiki odamlar qalbiga singib, aralashib ketganligini ham idroklashga keng zamin hozirlab beradi. Shu ma'noda "yozuvchining hoyaviy pozitsiyasi qanchalik aniq bo'lsa, uning ijodiy prinsiplari shuncha yorqin namoyon bo'ladi. Shu ikkala tomon asarda ijodiy prinsiplar doirasiga kiruvchi badiiylik komponentlari (konflikt, syujet, kompozitsiya, til va boshqalar)dan foydalanish mahorati, san'atkorlikni ko'rsatish orqali yuzaga chiqadi. Har bir asarning badiiy saviyasi ana shu estetik xususiyatlarning dialektik birlikda namoyon etilish darajasiga bog'liq" [2;107]. Haqiqatdan ham, XX asrning badiiy poetik talqini kuchayib, yagona inson tuyg'ulari bilan g'oyatda jips bog'lanib, chatishib ketgan eposning mohiyatida asrlar osha bizu siz bilan yashab kelayotgan tuyg'ularning go'zal simfonik ustqurmasi yuzaga chiqadi. Ayni shu bosqichda inson qaysi yo'ldan yurmog'i muhim degan juda mantiqli savol jilvalanadi: "Men yotgan divan uxlash uchun unchalik qulay emas ekan. Shuning uchun ham uxlagandan ko'ra Struve to'g'risida o'y surib chiqdim. Blanshning qiligi meni unchalik hayron qoldirmadi. Buni hirsning natijasi deb bilardim. Ayol, ehtimol, hyech qachon Dirgni chinakamiga sevmagan bo'lsa kerak. Men sevgi sifatida qabul qilayotgan hissiyot esa ko'pincha ayol zoti g'amxo'rlik va erkalatishni haqiqiy sevgi o'rnida qabul qilishiga o'xshash holat bo'lsa ajabmas. Bu sustkash tuyg'u, shu tufayli ham xohlagan daqiqada xuddi tok novdasidek istagan daraxtiga chirmashib ketaveradi. Inson aqli bunday qobiliyatga tan beradi, shekilli, aks holda qizlarni shu qizni olishni xohlagan odamga turmushga majburlab berishmagan, ayol zoti keyinchalik erini sevib ketaveradi, deb o'ylashmagan bo'lardi. Bunday tuyg'u xotirjamlik hissiyotidan, o'zini yoqimli deb hisoblash hissiyotidan kelib chiqsa kerak" [3;61-62].

Blanshning Striklendni sevib qolishi yozuvchi atayin syujetning yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlashga xizmat qilsa, boshqa tomondan jamiyatdagi uzil-kesil taraqqiyot o'lchamlarining kun sayin-soat sayin o'zgarib, yangilanib borayotganligidan shahodat beradi. Insoniyat har bir davrning ibtidosi va intihosi orasini solishtirib yashaydi. Mafkuraviy sarjanishlar, qahramonlar qiyofasi, g'oyalar to'qnashuvi mana shular jumlasidandir. Roman poetikasida yozuvchi nutqi va qahramon nutqining aralashib ketishi bizni o'rab turgan muhit suvratini asoslashga yo'l ochadi. Endilikda mana shu tamoyil, insonning o'zi o'rab turgan muhitga daxldor qiyofasini anglash yo'sinida paydo bo'ladigan ziddiyatlarni yengib o'tishga imkon beradi.

"Oy va sariq chaqa" romanida oila tanazzuli mavzusi - o'z-o'zidan jamiyat tanazzuli mavzusiga ko'chib o'tadi. Mana shu o'rinda Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanidagi Akbar va Diana, Larsa xola xarakterlaridagi uzviylikni ham yuzaga chiqishiga ikmoniyat beradi:

“Televizorning “yangi joyi judayam muvaffaqiyatsiz tanlanganiga Akbar e’tibor qildi. Darhaqiqat, qaysi tomondan qaramang, u avvalgi joyida – ulkan stenkadagi maxsus o’rinda uzukka ko’z qo’ygandek yarashqli turgan ekan. Chunki bejirim divan ham shundoq ro’parada bo’lib, undan televizorni tomosha qilish rosayam qulay edi. “Nega uni ko’rimsiz o’ringa ko’chirdi?” – Akbar tushunmadi. Indamay borib televizorni “stenka”ga o’rantedi. So’ng baribir so’radi: “Nega uni ko’chirdingiz, axir joyi shu yer ekan-ku?”

“Namuncha sodda bo’lmasa” – xayolidan o’tdi Diananing ensasi qotib. Lekin javob o’rniga Akbarga qarab jilmaydi...” [1;55].

Qo’shnisi Diana bilan ishqiy munosabatda yurgan Akbarning bag’rida sevgi-muhabbat o’z ayoli Farida qiyofasida boshqacha mohiyat kasb etishi mumkindir, ammo uning istaklari umuman boshqa narsalarga qaratilgandi. Lazzat va ruhiy xotirjamlik xatolar qarshisida munosib javob topa olmayotgan Akbarning vujudini yillar davomida kemirib kelardi. Romandagi mana shu ikki obraz juda ko’plab qahramonlarning yashash tarziga daxl qilib boradi. Ayniqsa, kasal va tabib orasida ham ayanchil mushohadalar hayot savollari o’z-o’zidan yopirilib kelaveradi. Romandagi syujet qismlari ikki xil tarzda namoyon bo’ladi: birinchisi Akbarning qamalib Rossiya o’lkalarida poliz ekanlarini sotishi, ikkinchisi chumchuq so’ysa ham qassob so’ysin maqolidagi kabi o’z kasbini davom ettirish ilinjida yana turli xil odamlarga egilib yashash muhimligida. Ular Diana bilan shunchaki tanishmaydi. Oralaridagi samimiy muhabbat har ikkisining o’z hayotini to’g’rilab olishlariga imkon beruvchi qo’shimcha qismning butunga aylanishiga qaratilganligida yaqqol seziladi. Romandagi ana shu tamoyil yozuvchining o’z iroda yo’nalishini asoslashga zamin tug’diradi. Bularning qilmish-qidirmishlari ham bevosita davrning taraqqiy etib, unga mos yashash muhimligini ham taqozolaydi.

Romanlardagi obrazlarni quyidagicha tasniflaymiz:

1. Asar voqyelikni izchil davom ettirishga yo’naltirilgan obrazlar (Charlz va uning do’ssti)
2. Roman syujetida yozuvchi konsepsiyasini yuzaga chiqaruvchi obrazlar (Akbar va Diana)
3. Inson va jamiyat o’rtasidagi jarlikni keltirishda yetakchi qahramonlar (Blansh Struve va Charlz Striklend)
4. “Isyon va itoat” romanida bemor Tursunboy jontalashni davolashga kirishgan Tabib obrazi.

Mana shu jihatlar “Oy va sariq chaqa”, “Isyon va itoat” romanlarida syujetning umumiy xususiyati va yozuvchi konseptual qarashlarini ifodalashga yo’naltiriladi. Bir qarashda, insoniy munosabatlar tanazzuli, oilaning barbod bo’lishi, rassomning katta xatolari tufayli sodir etilishi shular jumlasidandir. Akbar esa o’z o’quvchisini bir shapaloq urib, qamalib, hayoti izidan chiqib ketishi, sarguzasht-voqyealar negizida yuzaga chiqayotgani ayonlashadi.

Umuman olganda, o’zbek va ingliz adabiyotida syujetning umumiy xususiyati o’tgan davr voqyeligida asta-sekinlik bilan taraqqiy etib, barqarorlashib kelayotgan uslubiy-shakliy izlanishlar sintezini taqozo etadi. Dunyoning bo’lib o’linishi, birinchi va ikkinchi jahon urushi yillarida yuzaga kelgan millatlararo konfliktlar aslida, insoniy ziddiyatlarning debochasida oziqlanganini kafolatlaydi. Mavjud tuzumlarning roman poetik nuqtalarida ifoda etilishi mantiq modifikasiyasining chuqurlashuvini isbotlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ulug’bek Hamdam. Isyon va itoat. – Toshkent Yangi asr avlodi, 2003. -140 b.

2. To'rayev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. –T., Universitet. 2001. –B.107.
3. Somerset Moem. Oy va sariq chaqa. Roman. Rus tilidan R.Inog'omov tarjimasi. –T: “DAVR-PRESSS” NMU, 2012. – 236 b.
4. Bozorova D., Rasulova R. “Isyon va itoat” asarida qahramonlar psixologiyasi //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 1. – S. 1155-1160.
5. Kurbonbayevna M. D. The Origin of the Uzbek Literary Language and Its Historical Development on the Basis of Turkish Written Monument //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 6. – C. 914-917.
6. Kurbonbayevna M. D. Sujet va kompozitsiya yaratishda uslubning roli //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 83-86.
7. Kurbonbayevna M. D. Zamonaviy O'zbek va ingliz nasrida ko 'chib yuruvchi syujet moduslari hamda uslublararo sintez masalasi //Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 841-843.
8. Махмудова Д. Характернинг ўсиш-ўзгаришида ғоявий-бадий метаморфоза уйғунлиги //Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 178-180.
9. Махмудова Д. Роль методики при использовании интернет-ресурсов при обучении иностранному языку //Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 132-134.
10. Усанов Р. Т., Хаккулов Н. К. ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ «НЕНАСИЛИЕ» //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 1406-1413.
11. Ҳаққулов Н. Қ. Сиддиқий-Ажзий маърифатпарварлик қарашларида миллий толерантлик масаласи //НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ. – 2020. – №. 10. – С. 296.